



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

Umumta’lim maktablarida yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etishni tajriba-sinovdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 163-bandi hamda “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish, yuqori sinf o‘quvchilarini fanlarga ixtisoslashuvini kengaytirish hamda ularni oliy o‘quv yurtlariga yo‘naltirish uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida **buyuraman:**

1. 2023-2024-o‘quv yili davomida tanlab olingan umumta’lim maktablarida yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish hamda mazkur maktablarda o‘quvchilarning bilimini baholashning yangi tartibi bo‘yicha tajriba-sinov ishlari o‘tkazilsin.

2. Quyidagilar:

Yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkazish **tartibi** (keyingi o‘rinlarda - tartib) 1-ilovaga muvofiq;

Tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning o‘quv rejasi va tushuntirish xati (keyingi o‘rinlarda - o‘quv rejasi) 2-ilovaga muvofiq;

Yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkaziladigan umumta’lim maktablari ro‘yxati (keyingi o‘rinlarda - tajriba-sinov maktablari) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva)ga:

yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini muvofiqlashtirish;

tajriba-sinov davrida uzluksiz metodik yordam berib borilishini yo‘lga qo‘yish vazifalari yuklatilsin.

4. Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov)ga:

joriy yilning 1-avgustiga qadar tajriba-sinov maktablarida yangi baholash jarayonlarini tashkil etish bo'yicha vaqtinchalik tartibini ishlab chiqish va vazirlik rahbariyatiga kiritish;

tajriba-sinov maktablarida **yangi baholash** tartibining joriy etilishi jarayonlarini muvofiqlashtirib borish;

2024-2025-o'quv yili yakuniga qadar tanlov fanlari joriy etilgan 11-sinf bitiruvchilarining yakuniy davlat imtihonlarini tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning o'quv reja va o'quv dasturi talablariga muvofiqlashtirish choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.

5. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (R.Musurmonov) tajriba-sinov maktablarini yangi baholash tizimiga o'tkazish munosabati bilan mavjud elektron dastur (kundalik.com)ni texnik jihatdan qayta takomillashtirsin.

6. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev)ga:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari bilan birgalikda tajriba-sinov jarayonlarini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida yo'nalishlari bo'yicha ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni tajriba-sinov maktablariga biriktirish;

yo'nalishlar bo'yicha fan o'qituvchilariga uzluksiz mahorat darslarini tashkil etish;

ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yangi **baholash** tizimi bo'yicha yo'lga qo'yilgan ijobiy tajriba asosida tajriba-sinov o'tkaziladigan maktab o'qituvchilari uchun tizimli ravishda o'quvlar tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

7. Respublika ta'lim markazi (Sh.Sattarov)ga:

joriy yil 1-avgustga qadar Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarining yo'nalishlari bo'yicha o'quv dasturlarini tahlil qilish, tanlov fanlari uchun moslashtirish hamda davlat ta'lim standartlari, taqvim-mavzu rejalarini ishlab chiqish;

bir oy muddatda tanlov fanlari joriy etiladigan maktablarning tayanch o'quv rejasidan kelib chiqib, majburiy fanlarning o'quv dasturlari hamda davlat ta'lim standartlari, taqvim-mavzu rejalarini moslashtirish;

tajriba-sinov maktablaridagi tanlov fani o'qituvchilariga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish hamda tegishli tavsiyalarni berib borish vazifalari topshirilsin.

8. O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov), Respublika ta'lim markazi (Sh.Sattarov) Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev) bilan birgalikda:

ikki oy muddatda tajriba-sinov maktab rahbarlari hamda mas'ul xodimlari uchun tanlov fanlari hamda yangi baholash tartibini joriy etish bo'yicha o'quvlar tashkil etsin;

tajriba-sinov yakunlari bo'yicha 2024-2025-o'quv yilida tanlov fanlari va yangi baholash tizimini boshqa umumiy o'rta ta'lim maktablariga joriy etish bo'yicha asosli taklifini kiritsin.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

belgilangan maktablarda tajriba-sinov jarayonlarini samarali tashkil etish, doimiy nazoratga olish va muvofiqlashtirib borish;

har chorak yakuni bo'yicha tajriba-sinov xulosalarini vazirlikka taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil 27-iyun,
192-son

Yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkazish tartibi

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib:

umumta’lim maktablarida ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarni va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash, o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda ta’lim berishni;

yuqori sinf o‘quvchilarini fanlarga ixtisoslashuvini kengaytirish hamda ularni oliy o‘quv yurtlariga yo‘naltirish uchun keng imkoniyatlar yaratishni belgilaydi.

II. Tajriba-sinovni amalga oshirish tartibi

2. Tajriba-sinov ishlari 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab har bir hududdan tanlab olingan tajriba-sinov maktablarining 10-sinflarida amalga oshiriladi.

Bunda, tanlov sinfidagi o‘quvchilar soni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida Nizom”ga muvofiq bo‘lishi lozim.

3. Umumiy o‘rta ta’lim maktabida tanlov sinfini tashkil etishda o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyati hamda yuqori malakali, tajribali o‘qituvchilarning mavjudligi inobatga olinadi.

Agarda, tegishli yo‘nalish bo‘yicha so‘rovnoma natijalariga ko‘ra o‘quvchilar tomonidan qiziqish bildirilmasa, tanlov fani joriy etiladigan sinf tashkil etilmaydi.

4. Umumiy o‘rta ta’lim maktabida tanlov fani joriy etiladigan sinfni tashkil etish uchun quyidagi yo‘nalishlar tavsiya etiladi:

matematika - fizika yo‘nalishi;
kimyo - biologiya yo‘nalishi;
ona tili - chet tili yo‘nalishi;
matematika - chet tili yo‘nalishi.

Keyingi o‘quv yilidan boshlab yuqori sinf o‘quvchilarining oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishlari uchun imkoniyatlar yaratish hamda ularning qiziqishlariga qarab yangi yo‘nalishlar (*ijtimoiy-gumanitar, amaliy fanlar va boshqa*) ochilishi mumkin.

5. Tanlov fani joriy etiladigan sinfda ta’lim jarayoni tegishli yo‘nalishi bo‘yicha alohida o‘quv reja asosida tashkil etiladi.

mazkur o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

6. Tanlov fanlari joriy etiladigan sinf yo‘nalishi 10-sinf o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish orqali aniqlanadi. Yo‘nalishni aniqlashda o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilayotganda ota-onalar ham farzandlari bilan birga ishtirok etishi mumkin. Bunda, bir nafar o‘quvchi faqat bitta yo‘nalishni tanlaydi.

7. O‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish va natijasini umumlashtirish uchun maktabda tanlov komissiyasi tuziladi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, psixolog, amaldagi sinf rahbari, fan metod birlashma rahbari va ota-onalar qo‘mitasi raisi kiritiladi;

bunda, tanlov komissiyasi a‘zolari tarkibiga o‘quvchilarning ota-onalari va tegishli yo‘nalishdagi fan o‘qituvchilari kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi (ota-onalar qo‘mitasi raisi va fan metod birlashmalari rahbarlari bundan mustasno).

8. So‘rovnomaning o‘tkazish va natijalarini umumlashtirish jarayonining shaffofligini ta‘minlash, jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadida ushbu jarayonlarda maktabning Kuzatuv kengashi a‘zolari kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi mumkin.

9. So‘rovnoma natijasi tahlil qilinib, tayyorlangan ma‘lumot maktab direktoriga taqdim etiladi.

10. So‘rovnoma natijasida tegishli tanlov fani joriy etiladigan sinfdan o‘qishni xohlagan o‘quvchilar soni **35 nafardan oshib** ketsa, o‘quvchilar maktab tomonidan tashkil etiladigan tegishli fan bo‘yicha sinov natijalari asosida qabul qilinadi.

Agar, maktabda sinov tashkil etiladigan bo‘lsa, direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari rahbarligida ishchi guruh (*3-5 nafaardan iborat*) tuziladi. Ishchi guruh tanlangan yo‘nalishdagi fanlardan nazorat materiallarini tayyorlab, ularning maxfiyligini ta‘minlagan holda o‘quvchilardan nazorat ishlari olinadi.

Maktabda direktor yoki tajribali fan o‘qituvchilari, psixologlardan iborat appelyatsiya komissiyasi tuziladi. Appelyatsiya komissiyasi amaldagi me‘yoriy hujjatlar asosida o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Sinovdan o‘tolmagan o‘quvchi an‘anaviy sinfdan o‘qishini davom ettiradi.

11. Ota-onalar farzandlarini tanlov sinfiga qabul qilishi to‘g‘risida direktor nomiga ariza yozadi.

Tajriba-sinov davrida o‘quvchilarga o‘quv yili davomida tanlov sinfdan an‘anaviy sinfga yoki an‘anaviy sinfdan tanlov sinfiga o‘tishiga ruxsat beriladi.

12. Tajriba-sinov maktabidagi 10-sinflar “Umumta‘lim muassasalari sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271*) muvofiq komplektlanadi. Bunda, sinflar soni mavjud 10-sinflar sonidan oshib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

13. Maktab direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari va fan metod birlashma rahbarlari tomonidan tanlov fani joriy etiladigan sinf yo‘nalishi, o‘quvchilar ro‘yxati, sinf rahbari va mazkur fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilar to‘g‘risida ma‘lumot tayyorlanadi.

14. Ushbu ma'lumot maktab pedagogika kengashida muhokama qilinib, kengashda yo'nalishi, tanlov fani joriy etiladigan sinfga mo'ljallangan o'quv reja, fan o'qituvchilari, dars taqsimoti, sinf rahbarini belgilash, o'quvchilar ro'yxatini tasdiqlash bo'yicha tegishli qaror qabul qilinadi.

III. Majburiy fanlar

15. Tanlov fani joriy etiladigan sinfda quyidagi **11 ta majburiy fan** o'qitiladi:

Ona tili va adabiyot, chet tili, rus tili, tarix, tarbiya, matematika, kimyo, biologiya, fizika, jismoniy tarbiya, chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik.

16. Tanlov sinfida quyidagi majburiy va tanlov fanlarini o'tishda ikki guruhga bo'lib o'qitishga ruxsat etiladi:

malakali o'qituvchilar yetarli bo'lib, o'quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo'lganda chet tili, ta'lim tili rus tili bo'lmagan umumta'lim muassasalarida "rus tili", chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik, jismoniy tarbiya fanlari ikki guruhga bo'lib o'qitiladi.

IV. Tanlov fanlari

17. O'quvchilar tomonidan tanlangan yo'nalishga oid fanlar tanlov fanlari hisoblanadi.

18. Tanlov fanlari joriy etiladigan sinfda majburiy fanlar bilan birga tanlov fanlari ham o'qitiladi.

19. Tanlov fanlarini chuqur o'rgatishda darsliklardan tashqari, qo'shimcha adabiyot va manbalardan foydalanish mumkin.

20. Tanlov fanlari joriy etiladigan sinfda tanlov fanlarining dars soatlari ayrim umumta'lim fanlari dars soatlarining qisqarishi evaziga oshirilgan holda o'qitiladi.

21. Tanlov fanlari joriy etiladigan sinf bitiruvchilarining umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnomasiga yakuniy baholar quyidagicha qo'yiladi:

o'quv reja bo'yicha 11-sinfda o'qitilgan barcha fanlardan yillik (*yakuniy*) baholari sinf jurnallari (*kundalik.com*) asosida qo'yiladi;

10-11-sinflarda tegishli o'quv reja asosida tashkil etilgan sinflarda o'tilmagan fanlarning baholari 9-sinf tayanch o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnomasidan ko'chiriladi;

tanlov fani joriy etilgan sinfda o'tilmagan "Tadbirkorlik asoslari" va "Astronomiya" fanlari bo'yicha baholar qo'yilmaydi.

22. "Geografiya", "Davlat va huquq asoslari", "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlari doirasida shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalar turdosh fanlar hamda fan to'garaklarida rivojlantiriladi.

23. Tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarda 11-sinf bitiruvchilari mavjud o'qitilgan fanlar doirasida davlat imtihonini topshirishi mumkin.

V. Yakuniy qoidalar

24. Tanlov sinfini tashkil etish yoki uni tugatish maktabning pedagogika kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.

**Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning
o'quv rejasi va tushuntirish xati**

Matematika va fizika yo'nalishi

T/r	Fan yo'nalishlari va nomlari	Haftalik soat
		10-sinf
Majburiy fanlar		
I	Filologiya fanlari	9
1	Ona tili va adabiyot	5
2	Rus tili	1
3	Chet tili	3
II	Ijtimoiy fanlar	3
4	Tarix	2
5	Tarbiya	1
III	Aniq fanlar	5
6	Matematika	5
IV	Tabiiy fanlar	3
7	Fizika	1
8	Kimyo	1
9	Biologiya	1
V	Amaliy fanlar	2
10	Jismoniy tarbiya	1
11	Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik	1
jami		22
Tanlov fanlari		
1	Matematika	5
2	Fizika	4
jami		9
Umumiy haftalik soat		31

TUSHUNTIRISH XATI

1. **Matematika va fizika** yo‘nalishidagi tanlov sinfida “Matematika”, “Fizika” fanlari tanlov fanlari hisoblanadi.

2. Tanlov sinflarda majburiy fanlar quyidagicha:

“**Ona tili va adabiyot**” fani haftasiga 3 soat “Ona tili” va 2 soat “Adabiyot” fani;

“**Rus tili**” fani haftasiga 1 soat;

“**Chet tili**” fani haftasiga 3 soat;

“**Tarix**” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

“O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 1,5 soat, “Jahon tarixi” 0.5 soat;

“**Tarbiya**” fani haftasiga 1 soat;

“**Matematika**” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

“Algebra” fani 3 soat, “Geometriya” fani 2 soat;

“**Fizika**” fani haftasiga 1 soat;

“**Kimyo**” fani haftasiga 1 soat;

“**Biologiya**” fani haftasiga 1 soat;

“**Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik**” fani haftasiga 1 soat;

“**Jismoniy tarbiya**” fani haftasiga 1 soat hajmda o‘qitiladi.

3. Tanlov fanlari quyidagicha:

“**Matematika**” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

“Algebra” fani 3 soat, “Geometriya” fani 2 soat;

Fizika fani haftasiga 4 soat hajmda o‘qitiladi.

Kimyo va biologiya yoʻnalishi

T/r	Fan yoʻnalishlari va nomlari	Haftalik soat
		10-sinf
Majburiy fanlar		
I	Filologiya fanlari	9
1	Ona tili va adabiyot	5
2	Rus tili	1
3	Chet tili	3
II	Ijtimoiy fanlar	3
4	Tarix	2
5	Tarbiya	1
III	Aniq fanlar	5
6	Matematika	5
IV	Tabiiy fanlar	3
7	Fizika	1
8	Kimyo	1
9	Biologiya	1
V	Amaliy fanlar	2
10	Jismoniy tarbiya	1
11	Chaqiriqqa qadar boshlangʻich tayyorgarlik	1
jami		22
Tanlov fanlar		
1	Kimyo	5
2	Biologiya	4
jami		9
Umumiy haftalik soat		31

TUSHUNTIRISH XATI

1. **Kimyo va biologiya yoʻnalishidagi** tanlov sinfida “Kimyo”, “Biologiya” fanlari tanlov fanlari hisoblanadi.

2. Tanlov sinflarda majburiy fanlar quyidagicha oʻqitiladi:

“**Ona tili va adabiyot**” fani haftasiga 3 soat “Ona tili” va 2 soat “Adabiyot” fani;

“**Rus tili**” fani haftasiga 1 soat;

“**Chet tili**” fani haftasiga 3 soat;

“**Tarix**” fani uchun ajratilgan haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

“**Oʻzbekiston tarixi**” fani haftasiga 1,5 soat, “**Jahon tarixi**” fani haftasiga 0.5 soat;

“**Tarbiya**” fani haftasiga 1 soat;

“**Matematika**” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

“Algebra” fani 3 soat, “Geometriya” fani 2 soat;

“**Fizika**” fani haftasiga 1 soat;

“**Kimyo**” fani haftasiga 1 soat;

“**Biologiya**” fani haftasiga 1 soat;

“**Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik**” fani haftasiga 1 soat;

“**Jismoniy tarbiya**” fani haftasiga 1 soat hajmda oʻqitiladi.

3. Tanlov fanlari quyidagicha:

“**Kimyo**” fani 5 soat;

“**Biologiya**” fani haftasiga 4 soat hajmda oʻqitiladi.

Ona tili va chet tili yoʻnalishi

T/r	Fan yoʻnalishlari va nomlari	Haftalik soat
		10-sinf
Majburiy fanlar		
I	Filologiya fanlari	8
1	Ona tili va adabiyot	4
2	Rus tili	1
3	Chet tili	3
II	Ijtimoiy fanlar	3
4	Tarix	2
5	Tarbiya	1
III	Aniq fanlar	5
6	Matematika	5
IV	Tabiiy fanlar	3
7	Fizika	1
8	Kimyo	1
9	Biologiya	1
V	Amaliy fanlar	2
10	Jismoniy tarbiya	1
11	Chaqiriqqa qadar boshlangʻich tayyorgarlik	1
jami		21
Tanlov fanlar		
1	Ona tili va adabiyot	6
2	Chet tili	4
jami		10
Umumiy haftalik soat		31

TUSHUNTIRISH XATI

1. **Ona tili va chet tili yoʻnalishidagi** tanlov sinfida “Ona tili va adabiyot”, “Chet tili” fanlari tanlov fanlari hisoblanadi.

2. Tanlov sinflarda majburiy fanlar quyidagicha:

“**Ona tili va adabiyot**” fani haftasiga 2 soat “Ona tili” va 2 soat “Adabiyot” fani;

“**Rus tili**” fani haftasiga 1 soat;

“**Chet tili**” fani haftasiga 3 soat;

“**Tarix**” fani uchun ajratilgan haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

“**Oʻzbekiston tarixi**” fani haftasiga 1,5 soat, “**Jahon tarixi**” fani haftasiga 0.5 soat;

“**Tarbiya**” fani haftasiga 1 soat;

“**Matematika**” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

“Algebra” fani 3 soat, “Geometriya” fani 2 soat;

“**Fizika**” fani haftasiga 1 soat;

“**Kimyo**” fani haftasiga 1 soat;

“**Biologiya**” fani haftasiga 1 soat;

“**Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik**” fani haftasiga 1 soat;

“**Jismoniy tarbiya**” fani haftasiga 1 soat hajmda oʻqitiladi.

3. Tanlov fanlari quyidagicha:

“**Ona tili va adabiyot**” fani haftasiga 3 soat “Ona tili” va 3 soat “Adabiyot” fani;

“**Chet tili**” fani haftasiga 4 soat hajmda oʻqitiladi.

Matematika va chet tili yoʻnalishi oʻquv rejasi

T/r	Fan yoʻnalishlari va nomlari	Haftalik soat
		10-sinf
Majburiy fanlar		
I	Filologiya fanlari	9
1	Ona tili va adabiyot	5
2	Rus tili	1
3	Chet tili	3
II	Ijtimoiy fanlar	3
4	Tarix	2
5	Tarbiya	1
III	Aniq fanlar	5
6	Matematika	5
IV	Tabiiy fanlar	3
7	Fizika	1
8	Kimyo	1
9	Biologiya	1
V	Amaliy fanlar	2
10	Jismoniy tarbiya	1
11	Chaqiriqqa qadar boshlangʻich tayyorgarlik	1
JAMI		22
Tanlov fanlari		
1	Matematika	5
2	Chet tili	4
jami		9
Umumiy haftalik soat		31

TUSHUNTIRISH XATI

1. **Matematika va chet tili yo‘nalishidagi** tanlov sinfida “Matematika”, “Chet tili” fanlari tanlov fanlari hisoblanadi.

2. Tanlov sinflarda majburiy fanlar quyidagicha:

“**Ona tili va adabiyot**” fani haftasiga 3 soat “Ona tili” va 2 soat “Adabiyot” fani;

“**Rus tili**” fani haftasiga 1 soat;

“**Chet tili**” fani haftasiga 3 soat;

“**Tarix**” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

“**O‘zbekiston tarixi**” fani haftasiga 1,5 soat, “**Jahon tarixi**” fani haftasiga 0.5 soat;

“**Tarbiya**” fani haftasiga 1 soat;

“**Matematika**” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

“Algebra” fani 3 soat, “Geometriya” fani 2 soat;

“**Fizika**” fani haftasiga 1 soat;

“**Kimyo**” fani haftasiga 1 soat;

“**Biologiya**” fani haftasiga 1 soat;

“**Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik**” fani haftasiga 1 soat;

“**Jismoniy tarbiya**” fani haftasiga 1 soat hajmda o‘qitiladi.

3. Tanlov fanlari quyidagicha:

“**Matematika**” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

“Algebra” fani 3 soat, “Geometriya” fani 2 soat;

“**Chet tili**” fani haftasiga 4 soat hajmda o‘qitiladi.

**Yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini
tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkaziladigan umumta’lim maktablari
ro‘yxati**

T/r	Hudud	Tuman (shahar)	Maktab raqami
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Ellikqal’a tumani	22-maktab
2	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Xo‘jayli tumani	3-maktab
3	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Amudaryo tumani	36-maktab
4	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Beruniy tumani	60-maktab
5	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Beruniy tumani	38-maktab
6	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Xo‘jayli tumani	24-maktab
7	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	To‘rtko‘l tumani	30-maktab
8	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Amudaryo tumani	18-maktab
9	Andijon viloyati	Andijon shahar	48-maktab
10	Andijon viloyati	Andijon shahar	50-maktab
11	Andijon viloyati	Andijon shahar	31-maktab
12	Andijon viloyati	Baliqchi tuman	54-maktab
13	Andijon viloyati	Marhamat tumani	10-maktab
14	Andijon viloyati	Jalaquduq tumani	11-maktab
15	Andijon viloyati	Asaka tumani	55-maktab
16	Andijon viloyati	Andijon tuman	45-maktab
17	Andijon viloyati	Buloqboshi tuman	2-maktab
18	Andijon viloyati	Oltinko‘l tumani	22-maktab
19	Buxoro viloyati	Buxoro shahar	38-maktab
20	Buxoro viloyati	Buxoro shahar	14-maktab
21	Buxoro viloyati	Buxoro shahar	23-IDUM
22	Buxoro viloyati	Kogon shahar	9- maktab
23	Buxoro viloyati	Jondor tuman	1-maktab
24	Buxoro viloyati	Kogon tumani	11-maktab
25	Buxoro viloyati	Jondor tuman	8-maktab
26	Buxoro viloyati	Buxoro shahar	17-maktab
27	Jizzax viloyati	Sh.Rashidov tumani	13-maktab
28	Jizzax viloyati	Sh.Rashidov tumani	36-maktab
29	Jizzax viloyati	Jizzax shahar	6-maktab
30	Jizzax viloyati	Jizzax shahar	22-maktab
31	Jizzax viloyati	G‘allaorol tumani	44-maktab
32	Jizzax viloyati	Zarbdor tumani	3-maktab
33	Jizzax viloyati	Mirzacho‘l tumani	18-maktab
34	Jizzax viloyati	Paxtakor tumani	9-maktab
35	Jizzax viloyati	Baxmal tumani	1-maktab
36	Navoiy viloyati	Qiziltepa tumani	5-ISMM

37	Navoiy viloyati	Navoiy shahar	12-maktab
38	Navoiy viloyati	Uchquduq tumani	10-maktab
39	Navoiy viloyati	Karmana tumani	3-maktab
40	Navoiy viloyati	Uchquduq tumani	18-maktab
41	Navoiy viloyati	Navbahor tumani	1-maktab
42	Navoiy viloyati	Navoiy shahar	11-maktab
43	Samarqand viloyati	Samarqand tuman	3-maktab
44	Samarqand viloyati	Jomboy tuman	14-maktab
45	Samarqand viloyati	Samarqand tuman	23-maktab
46	Samarqand viloyati	Samarqand shahar	24-maktab
47	Samarqand viloyati	Samarqand shahar	14-maktab
48	Samarqand viloyati	Pastdarg'om tuman	8-maktab
49	Surxondaryo viloyati	Termiz shahri	13-maktab
50	Surxondaryo viloyati	Termiz shahri	9-maktab
51	Surxondaryo viloyati	Denov tumani	81-maktab
52	Surxondaryo viloyati	Denov tumani	82-maktab
53	Surxondaryo viloyati	Jarqo'rg'on tumani	19-IDUM
54	Surxondaryo viloyati	Sariosiyo tumani	2-maktab
55	Surxondaryo viloyati	Termiz tumani	16-IDUM
56	Surxondaryo viloyati	Qumqo'rg'on tumani	2-maktab
57	Farg'ona viloyati	Farg'ona tumani	15-maktab
58	Farg'ona viloyati	Toshloq tumani	6-maktab
59	Farg'ona viloyati	Uchko'prik tumani	20-maktab
60	Farg'ona viloyati	Farg'ona shahar	5-maktab
61	Farg'ona viloyati	Marg'ilon shahar	33-maktab
62	Farg'ona viloyati	Qo'qon shahar	29-maktab
63	Farg'ona viloyati	Quva tumani	19-maktab
64	Farg'ona viloyati	Farg'ona shahar	13-maktab
65	Farg'ona viloyati	Quva tumani	5-maktab
66	Fargona viloyati	O'zbekiston tumani	18-maktab
67	Sirdaryo viloyati	Boyovut tumani	1-maktab
68	Sirdaryo viloyati	Guliston shahar	8-maktab
69	Sirdaryo viloyati	Guliston shahar	11-maktab
70	Sirdaryo viloyati	Guliston shahar	15-maktab
71	Sirdaryo viloyati	Guliston shahar	16-maktab
72	Sirdaryo viloyati	Sayxunobod tumani	1-maktab
73	Sirdaryo viloyati	Xovos tumani	1-maktab
74	Sirdaryo viloyati	Sirdaryo tumani	1-maktab
75	Sirdaryo viloyati	Shirin shahar	1-maktab
76	Sirdaryo viloyati	Yangiyer shahar	1-maktab
77	Toshkent viloyati	Bekobod shahar	9-maktab
78	Toshkent viloyati	Yuqori Chirchiq tumani	9-maktab
79	Toshkent viloyati	Olmaliq shahar	19-maktab
80	Toshkent viloyati	Toshkent tumani	9-maktab
81	Toshkent viloyati	Angren shahar	8-maktab
82	Toshkent viloyati	Oqqo'rg'on tumani	6-maktab
83	Toshkent viloyati	Chirchiq shahar	13 - maktab

84	Namangan viloyati	Namangan shahar	7-maktab
85	Namangan viloyati	Pop tumani	10-maktab
86	Namangan viloyati	Namangan tumani	8-maktab
87	Namangan viloyati	Namangan shahar	18-maktab
88	Namangan viloyati	Namangan shahar	31-maktab
89	Namangan viloyati	Chortoq tumani	11-maktab
90	Namangan viloyati	Namangan tumani	30-maktab
91	Qashqadaryo viloyati	G'uzor tumani	1-maktab
92	Qashqadaryo viloyati	Kitob tumani	4-maktab
93	Qashqadaryo viloyati	Ko'kdala tumani	58-maktab
94	Qashqadaryo viloyati	Muborak tumani	1-maktab
95	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahar	34-maktab
96	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahar	9-maktab
97	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahar	4-maktab
98	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahar	10-maktab
99	Qashqadaryo viloyati	Shahrisabz shahar	1-maktab
100	Qashqadaryo viloyati	Qarshi tumani	33-maktab
101	Xorazm viloyati	Urganch shahar	13-maktab
102	Xorazm viloyati	Urganch shahar	5-maktab
103	Xorazm viloyati	Bog'ot tumani	3-maktab
104	Xorazm viloyati	Urganch tuman	15-maktab
105	Xorazm viloyati	Yangibozor tumani	24-maktab
106	Xorazm viloyati	Xiva tumani	8-maktab
107	Xorazm viloyati	Shovot tumani	1-maktab
108	Xorazm viloyati	Yangiariq tumani	4-maktab
109	Xorazm viloyati	Xonqa tumani	22-maktab
110	Toshkent shahri	Mirobod tumani	125 maktab
111	Toshkent shahri	Mirzo Ulug'bek tumani	256-maktab
112	Toshkent shahri	Olmazor tumani	249-maktab
113	Toshkent shahri	Olmazor tumani	234-maktab
114	Toshkent shahri	Olmazor tumani	315-maktab
115	Toshkent shahri	Olmazor tumani	278-maktab
116	Toshkent shahri	Uchtepa tumani	203-maktab
117	Toshkent shahri	Uchtepa tumani	238-maktab
118	Toshkent shahri	Shayxontohur tumani	102- maktab
119	Toshkent shahri	Yunusobod tumani	258-maktab
120	Toshkent shahri	Yunusobod tumani	274-maktab
121	Toshkent shahri	Yunusobod tumani	288-maktab
122	Toshkent shahri	Yakkasaroy tumani	127- maktab
123	Toshkent shahri	Yangihayot tumani	330-maktab
124	Toshkent shahri	Yangihayot tumani	331-maktab